

PAPER

O'ZBEKISTONDA HARBIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Suleymanov Saidazim Alisher o'g'li¹, * and Azamova Ziyoda Mamur qizi¹

¹Kimyo International University in Tashkent

* saidazimsuleymanov9@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada harbiy turizmning O'zbekiston turizm industriyasidagi o'rni, imkoniyatlari va istiqbollari yoritilgan. Muallif tomonidan harbiy muzeylar tashkil etilishi, harbiy poligonlarga ekskursiyalar, "Bir kunlik askar" dasturi, tarixiy joylarning restavratsiyasi va xalqaro harbiy festivallarni tashkil qilish orqali turizm sohasiga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatilishi tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro tajribalarni o'rganish, tur operatorlar bilan hamkorlik va maxsus onlayn platformalar yaratishning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Xulosa sifatida esa, harbiy turizm O'zbekistonda yangi turistik yo'nalish sifatida iqtisodiy, madaniy va tarbiyaviy sohalarga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan.

Key words:

harbiy turizm, harbiy muzey, ekskursiya, vatanparvarlik, tarixiy obidalar, xavfsizlik, turistik platforma, xalqaro hamkorlik, yoshlar tarbiyasi, turistik salohiyat.

Kirish

Bugungi kunda turizm sohasi global miqyosda eng jadal sur'atlar bilan taraqqiy etayotgan iqtisodiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. U mamlakatlarning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatib, turli sohalarda o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. Turizmning bir necha yo'nalishlari mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos jihatlarga ega. So'nggi yillarda esa dunyo bo'ylab harbiy turizmga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Ushbu turizm yo'nalishi turli urushlar, harbiy inshootlar, tarixiy jang maydonlari va harbiy muzeylarga sayohat qilishni o'z ichiga oladi. Harbiy turizmning asosiy maqsadi – tarixiy voqealarni jonlantirish, sayyohlarga yangi taassurotlar ulashish, vatanparvarlik ruhini mustahkamlash hamda harbiy merosni keng targ'ib qilishdir. (<https://www.unwto.org/tourism-and-culture>, 2023)

Ba'zi kishilar harbiy turizmni va odatiy turizmni bir-biriga zid tushunchalar deb hisoblaydilar. Chunki turizm asosan hordiq chiqarish, qulaylik va xavfsizlik bilan bog'liq. Shunga qaramay, tarixiy urush maydonlari va harbiy obidalarga bo'lgan qiziqish tobora oshib bormoqda. Bu nafaqat tarixiy ta'lim, balki madaniy merosni saqlash va vatanparvarlik ruhini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda dunyoning

turli mamlakatlarida harbiy tarix bilan bog'liq maskanlar ko'plab sayyohlarni o'ziga jalb qilmoqda. Masalan, Germaniyada Ikkinchi Jahon urushi davriga oid joylar, Fransiya Vaterloo jangi maydoni, AQShda Gettisburg va Pearl Harbor kabi tarixiy manzillar harbiy turizmning eng yorqin namunalaridandir. Ushbu hududlar nafaqat urush voqealarini yodga soladi, balki tarixiy saboqlarni yetkazishda muhim rol o'ynaydi. (. Gordon, 2018)

O'zbekiston ham harbiy turizmni rivojlantirish bo'yicha katta salohiyatga ega. Mamlakatimizda qadimiy va zamonaviy mudofaa inshootlari, harbiy tarix bilan bog'liq me'moriy yodgorliklar hamda turistik ahamiyatga ega maskanlar mavjud. Xususan, G'alaba bog'i yodgorlik majmuasi, Shon-Sharaf muzeyi, Qurolli Kuchlar davlat muzeyi va hududlardagi "Vatanparvarlar" bog'lari mahalliy hamda xorijiy sayyohlar uchun qiziqish uyg'otmoqda (<https://shon-sharaf.uz>, 2024). Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan 2025-yildan boshlab harbiy turizmni rivojlantirish bo'yicha yangi loyihalar amalga oshirilishi rejalashtirilgan. (<https://lex.uz/docs/-7114983>, 26.09.2024) Bu loyihalar doirasida mahalliy va xorijiy turistlarga harbiy texnika va qurol-aslahalar bilan yaqindan tanishish, stendli otish mashg'ulotlarida ishtirok etish imkoniyatlari yaratish ko'zda tutilgan.

O'zbekistonda harbiy turizmning rivojlanishi bir qator muhim jihatlarga xizmat qiladi. Avvalo, bu yo'nalish iqtisodiy va turistik salohiyatni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, yosh avlod orasida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, milliy merosni asrab-avaylash hamda O'zbekistonning xalqaro turizm bozorida nufuzini oshirishga xizmat qiladi. Shu boisdan harbiy turizm sohasi mamlakatimizda keng targ'ib qilinishi, unga doir loyihalar va dasturlar ishlab chiqilishi lozim. (TURIZM, 2020) Kelgusida harbiy tarix bilan bog'liq obyektlarning infratuzilmasini yaxshilash, ularga sayyohlarni jalb etish va zamonaviy texnologiyalar yordamida virtual ekskursiyalarni tashkil etish orqali ushbu yo'nalishni yanada rivojlantirish mumkin. Umuman olganda, harbiy turizm nafaqat tarixiy voqealarni eslab qolish, balki ular orqali kelajak avlodga saboq berishning samarali usuli hisoblanadi. O'zbekistonning serqirra tarixiy merosi hamda harbiy turizm maskanlari ushbu turizm yo'nalishi uchun muhim resurs bo'lib xizmat qilmoqda va mamlakatning sayyohlik salohiyatini yanada yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Ushbu ilmiy ishda G'alaba bog'i misolida O'zbekistonda harbiy turizm salohiyatini o'rganish maqsad qilingan. Harbiy turizm – bu nafaqat tarixiy joylarga sayohat qilish, balki yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, urush va tinchlik qiymatini anglashga xizmat qiluvchi muhim soha hisoblanadi. G'alaba bog'i esa bu borada noyob manzil bo'lib, o'zida Ikkinchi jahon urushi faxriylariga bag'ishlangan yodgorliklar, harbiy texnika namunalari jamlagan va tarixni jonli ko'rinishda namoyish etuvchi hududdir. Tadqiqot davomida bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi. Avvalo, deskriptiv (ta'riflovchi) uslub yordamida G'alaba bog'ining arxitekturasini, eksponatlari va tashkil etilgan maydonlari o'rganildi. Tahliliy yondashuv orqali bog'ning turizm salohiyati, tashrif buyuruvchilar oqimi, mavjud xizmatlar darajasi baholandi. Empirik metodlar – ya'ni so'rovnoma va intervyular orqali tashrif buyurgan sayyohlarning fikrlari, qoniqish darajasi va takliflari yig'ildi. (<https://uzbekistan.travel/uz/v/madaniy-turizm>, 2024)

Bundan tashqari, xorijiy davlatlardagi harbiy turizm ob'ektlari bilan taqqoslash orqali G'alaba bog'ining raqobatbardosh jihatlari va kamchiliklari aniqlashtirildi. SWOT tahlil orqali bog'ning kuchli, zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlar baholandi. Tadqiqot turizm menejmenti, tarixiy merosni saqlash va vatanparvarlik targ'iboti nazariyalariga asoslandi. Ushbu metodologiya asosida G'alaba bog'ining harbiy turizm yo'nalishida yanada rivojlanishiga xizmat qiluvchi amaliy xulosalar ishlab chiqildi

Asosiy qisim

Harbiy turizmni rivojlantirish istiqbollari

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari mustaqillik yillarida bosqichma-bosqich rivojlanib, bugungi kunda mintaqadagi eng salohiyatli harbiy tizimlardan biriga aylangan. 1992-yil 14-yanvarda tashkil etilgan Qurolli Kuchlar mamlakat xavfsizligi, hududiy yaxlitligi va mustaqilligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Milliy armiya tarkibida quruqlikdagi qo'shinlar, havo hujumidan mudofaa kuchlari, maxsus tayyorgarlikdan o'tgan qismlar va boshqa yo'nalishlar mavjud. Har yili muntazam ravishda tashkil etiladigan harbiy mashg'ulotlar, o'quv yig'inlari hamda poligon sharoitidagi amaliy sinovlar orqali Qurolli Kuchlarning jangovar salohiyati bosqichma-bosqich mustahkamlanmoqda. Aynan shu mashg'ulotlar va poligonlar harbiy turizm imkoniyatlari uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Harbiy turizm nafaqat harbiy mashg'ulotlar va zamonaviy texnikani ko'zdan kechirish, balki harbiy tarixni yanada chuqurroq o'rganish imkoniyatini ham taqdim

etadi. Shu jihatdan, Toshkent shahridagi G'alaba bog'i majmuasi alohida o'rinni egallaydi. Bu majmua Ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga bag'ishlangan yodgorliklar, muzeylar, harbiy texnika ko'rgazmalari va tarixiy eksponatlar orqali mehmonlarga O'zbekiston xalqining mardligi va sabr-toqatini namoyon etadi. G'alaba bog'i — bu harbiy tarixni eslash, qadrlash va yosh avlodga yetkazishning muhim maskani bo'lib, harbiy turizmning ilk shakllaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

O'zbekistondagi harbiy poligonlar va harbiy turizm salohiyati

O'zbekiston hududida joylashgan harbiy poligonlar nafaqat mudofaa tizimi uchun, balki kelajakda rivojlanishi mumkin bo'lgan harbiy turizm yo'nalishi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyodagi ko'plab mamlakatlarda (Rossiya, AQSh, Isroil kabi) harbiy turizm keng rivojlangan bo'lib, u sayyohlarga harbiy texnikalar, qurol-aslaha kolleksiyalari, mashg'ulotlar va hatto simulyatsiya qilingan jangovar tajribalarni taklif qiladi. O'zbekistonda ham bu borada imkoniyatlar mavjud. Jumladan:

- Kattaqo'rg'on harbiy poligoni – katta maydon, keng imkoniyatlar va harbiy texnikalarning ishtirokida o'tadigan mashg'ulotlar bilan mashhur. Agar bu hududda turizm maqsadida maxsus ekskursiyalar tashkil etilsa, mehmonlarga real harbiy tayyorgarlik jarayonini kuzatish, qurol-uskunalarni ko'rish va harbiy hayot bilan tanishish imkoniyati yaratilgan bo'lardi.

- Chirchiq harbiy o'quv markazi – bu markazda turli harbiy mutaxassisliklar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkaziladi. Harbiy turizm doirasida bu yerda “bir kunlik askarlik hayoti”, simulyatsion mashg'ulotlar, tarixiy qurollar ko'rgazmalari tashkil etilishi mumkin.

- Termiz va janubiy hududlardagi poligonlar – bu hududlar o'zining strategik joylashuvi bilan ajralib turadi. Chegara xavfsizligi, harbiy amaliyotlar va zamonaviy xavfsizlik usullariga qiziquvchi sayyohlar uchun bu hududlar katta qiziqish uyg'otishi mumkin.

Salohiyat, texnika va xalqaro hamkorlikda taraqqiyot

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi harbiy sohada katta siljishlar va islohotlarni boshdan kechirmoqda. Mamlakat mudofaa tizimining mustahkamlanishi, zamonaviy harbiy texnikalar bilan ta'minlanishi va xalqaro harbiy hamkorliklarning kengayishi — bularning barchasi harbiy salohiyatni oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa nafaqat milliy xavfsizlik, balki harbiy turizmning shakllanishi va rivojlanishiga ham zamin yaratmoqda. O'zbekiston armiyasi — mustahkamlik va zamonaviylashuv sari:

- 600+ tank (asosan T-72 va T-64 rusumlari)
- 1200+ zirhli transport vositalari
- 400+ artilleriya vositalari
- 50+ jangovar samolyot va vertolyotlar (MiG-29, Su-25, Mi-8)
- Turkiyadan keltirilgan dronlar (masalan, ANKA)

Yangi harbiy texnika va texnologiyalar armiyaga tez-tez joriy etilmoqda, jumladan:

- Termal kuzatuv vositalari
 - Sun'iy intellekt asosidagi boshqaruv tizimlari
 - UAV (dronlar) va robotlashtirilgan qurollar
- (<https://www.gazeta.uz/oz/2021/12/22/military-product/>)

Xalqaro hamkorlik — yangi ufqlar sari

O'zbekiston harbiy sohada ko'plab davlatlar bilan hamkorlik qiladi. Bu hamkorliklar qurolli kuchlarni rivojlantirish bilan birga, harbiy turizm uchun global eshiklarni ochmoqda.

- Rossiya — harbiy texnika yetkazib berish, qo'shma mashg'ulotlar, ofitserlar tayyorlash
- Turkiya — dronlar (ANKA), razvedka texnologiyalari, o'quv dasturlari
- AQSh — tinchlikparvar operatsiyalar, treninglar, kibermudofaa
- Xitoy — razvedka va sun'iy intellekt vositalari, aloqa texnologiyalari
- MDH davlatlari — chegaraviy xavfsizlik bo'yicha hamkorlik
- Isroil va Janubiy Koreya — termal texnologiyalar, kuzatuv tizimlari (<https://gov.uz/oz/defindustry>)

Harbiy turizm — kelajak yo'li

Hozirgi O'zbekiston zamonaviy, barqaror va kuchli qurolli kuchlarga ega davlat sifatida harbiy sohani rivojlantirishga katta investitsiyalar kiritmoqda. Harbiy texnikalar, poligonlar, tarixiy majmualar (xususan, G'alaba bog'i) va xalqaro hamkorlik natijasida harbiy turizm yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu nafaqat yoshlar va tadqiqotchilar, balki harbiy tarixga qiziqqan xorijlik sayyohlar uchun ham noyob imkoniyatlar eshigini ochadi. O'zbekistonda bu yo'nalish hali endi shakllanmoqda, biroq uning salohiyati juda katta — madaniyat, tarix va xavfsizlik uyg'unlashgan turizm yo'nalishi.

O'zbekistonda Harbiy Turizmni Rivojlantirish uchun muallif tamonidan Takliflar

1. Maxsus harbiy muzeylar tashkil etish: bu harbiy muzeylar orqali mamlakat o'z tarixiy merosini namouish eta oladi shu jumladan xorijlik tarixchilar, jurnalistlar va blogerlar e'tiborini jalb qiladi
 - Tarixiy qurollar, formalar, hujjatlar va texnikalar namoyishi
 - Interaktiv eksponatlar, simulyatsiyalar va virtual reallik imkoniyatlari
2. Harbiy poligonlarga ekskursiyalar tashkil qilish: ekskursiyalar tashkil etish sayyohlarga noyob va ekstremal tajriba taklif qilib harbiy turizmni jonlantiradi yoshlar orasida vatanparvarlikni kuchaytiradi va hududiy idtisodiy faollikka hissa qo'shadi.
 - Maxsus xavfsizlik qoidalari asosida sayyohlar uchun ruxsat berilgan ekskursiyalar
 - Harbiy texnikalarni yaqindan ko'rish va sinovlarda ishtirok etish imkoniyati
3. "Bir kunlik askarlik" dasturlari: bu fuqarolarga, ayniqsa yosh avlodga harbiy hayot tarzini qisqa muddatda his qilish imkonini beradi
 - Sayyohlar uchun harbiy intizom, mashg'ulotlar va kun tartibini sinab ko'rish
 - Harbiy formalarni kiyib, mashq o'tkazish, jangovar simulyatsiyalarda qatnashish
4. Harbiy tarixiy joylarni restavratsiya qilish va ochish: bu harbiy turizmni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki bu sayyohlarga real tarixiy muhitni his qilish imkonini beradi milliy merosni aasrab avaylashga xizmat qiladi hamda turizm infratuzilmasini boyitadi
 - Urushga oid yodgorliklar, harbiy qal'alar, sobiq harbiy bazalarni turistik ob'ekt sifatida tayyorlash
5. Xalqaro harbiy ko'rgazmalar va festivallarni tashkil etish, harbiy turizmni global miqyosda rivojlantirishga xizmat qilib, turli mamlakatlardan sayyohlar va mutaxassislarni jalb etadi hamda harbiy hamkorlikni mustahkamlaydi
 - Harbiy texnikalar, qurol-aslahalar ko'rgazmasi
 - Harbiy paradlar va tarixiy sahnalashtirilgan namoyishlar
6. Mahalliy va xorijiy tur operatorlari bilan hamkorlik: hamkorlik qilish harbiy turizm yo'nalishlarini keng targ'ib qilish turistlar oqimini ko'paytirish va xizmatlar sifatini oshirish orqali bu sohaning barqaror rivojlantirishini ta'minlaydi.

- Harbiy turizm paketlari tayyorlash va targ'ib qilish
- Xorijiy sayyohlar uchun tarjimonlar va professional gidlar tayyorlash

7. Harbiy turizm uchun maxsus platforma yaratish: maxsus platforma yaratish bu turdagi ob'yektlar ekskursiyalar va tadbirlar haqida to'liq ma'lumotlar beruvchi raqamli maydon bo'lib turistlarga qulay rejalashtirish imkonini yaratadi

- Veb-sayt yoki mobil ilova orqali harbiy obyektlar, ekskursiyalar, joylashuvlar va narxlar haqida ma'lumot

8. Xavfsizlik va qonuniylikni ta'minlash: bu harbiy turizm ishtirokchilarning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish harbiy obyektlar maxfiylikni saqlash va turizm faoliyatini qonuniy asosda tashkil etish uchun zarur bo'lgan asosiy omildir

- Harbiy turizm faqat ruxsat etilgan hududlarda, qat'iy qoidalar asosida amalga oshirilishi kerak

- Sayyohlar uchun yo'riqnomalar, sug'urta va xavfsizlik kafolatlari bo'lishi zarur

9. Yoshlar va talabalarga harbiy-tarixiy bilimlarni etkazish, ularning vatanparvarlik ruhini kuchaytirish va milliy merosga hurmatni rivojlantirish orqali jamiyatda ongli fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlaydi.

- Harbiy turizm orqali vatanparvarlikni oshirishga xizmat qiladigan dasturlar

10. Xalqaro tajribani o'rganish: bunda harbiy turizmni rivojlantirish samarali bo'lib boshqa mamlakatlarning strategiyalarini o'zlashtirish zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va global tendensiyalarfa moslashtirish yordam beradi.

- Rossiya, AQSh, Veitnam kabi davlatlarning harbiy turizm tajribalarini o'rganib, moslashtirish.

Natija va xulosalar

Yaqin kelajakda O'zbekistonda harbiy turizmni rivojlantirish yo'nalishida sezilarli o'sish kuzatilishi kutilmoqda. Maxsus harbiy muzeylarning tashkil etilishi, tarixiy harbiy obidalarni restavratsiya qilish, harbiy poligonlarga ekskursiyalar, "Bir kunlik askar" dasturi va xalqaro harbiy festivallar kabi tashabbuslar orqali bu soha yangi bosqichga chiqadi. Xorijiy tajribalarni o'rganish, mahalliy va xorijiy tur operatorlari bilan faol hamkorlik qilish, shuningdek, harbiy turizm uchun maxsus raqamli platforma yaratish orqali sayyohlar soni yil sayin ortib boradi. Harbiy turizm sohasi orqali 2025–2030 yillar oralig'ida turizmning umumiy salohiyatida 10–15% o'sish kuzatilishi mumkin. Bundan tashqari, yoshlar va talabalarga harbiy-tarixiy bilimlarni singdirish orqali vatanparvarlik va tarixiy merosga hurmat kuchayadi. Xavfsizlik va qonuniylikka qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladigan har bir loyiha, turizm sohasida barqaror rivojlanishni ta'minlab, O'zbekistonning xalqaro nufuzini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy turizm O'zbekiston Respublikasida turizm sanoatini diversifikatsiya qilishning innovatsion yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Maxsus harbiy muzeylarning tashkil etilishi, harbiy poligonlarga ekskursiyalar uyushtirish, "Bir kunlik askar" kabi dasturlar, xalqaro harbiy ko'rgazmalar va tarixiy obidalarni restavratsiya qilish orqali bu yo'nalishning jozibadorligi oshadi. Bunday tashabbuslar nafaqat sayyohlar oqimini ko'paytiradi, balki yoshlar va talabalarda vatanparvarlik, tarixiy ong va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Harbiy turizm doirasida xalqaro tajribalarni o'rganish, xorijiy va mahalliy tur operatorlar bilan hamkorlik qilish, hamda maxsus onlayn platformalar yaratish orqali uning salohiyati yanada kuchayadi. Xavfsizlik va qonuniylik talablariga qat'iy rioya etilgan holda, harbiy turizm O'zbekistonning turistik imidjini mustahkamlash, iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish va global turizm bozorida o'z o'rnini topishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. (<https://www.unwto.org/tourism-and-culture>, 2023)
2. UNWTO. Tourism and Culture Synergies. – [Elektron resurs]. – URL: <https://www.unwto.org/tourism-and-culture> (murojaat qilingan sana: 22.04.2025)
3. Gordon, B.M. War Tourism: Second World War France. – London: Cornell University Press, 2018.
4. (<https://shon-sharaf.uz>, 2024)
5. (<https://lex.uz/docs/-7114983>, 26.09.2024)
6. MINTAQAVIY TURIZM G.R. Xidirova, F.M.Raxmatullayeva 2020
7. (<https://uzbekistan.travel/uz/v/madaniy-turizm>, 2024)
8. Sharpley, R., Stone, P.R. Dark Tourism and Heritage in the Wake of Conflict. – London: Routledge, 2010. – 245 b.
9. (<https://www.gazeta.uz/oz/2021/12/22/military-product/>)
10. (<https://gov.uz/oz/defindustry>)
11. Military Tourism: A Global Analysis”by Kevin A. Yelvington
12. War and Tourism: The Development of Tourism in the Aftermath of the Great War”by Stephen H. Gorman
13. Tourism, Terrorism and 9/11: The Complexities of Conflict”by Anna Alhadeff